QASHQADARYO VILOYATI MIRISHKOR TUMANI HOKIMINING QARORI

181000 O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani Yangi Mirishkor shaharchasi, tel: 652-18-58, 652-10-34, faks-652-14-65, 652-19-48

2024 - yil 6 - yanvar 11-4-63-Q/24 Mirishkor tuman hokimligi

Mirishkor tumanida 2024-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekistan Respublikasi Qonunining 6-25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda - Nizom) muvofiq transport vositalarining 2024-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2.Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va

undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalariva ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda - DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta - 1 mart - 30 iyunda;

ikkinchi marta - 1 sentabr- 31 oktabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvar - 31dekabrda o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘lharakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik subyektlari-yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik subyektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorining 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Tuman hokimining 2022-yil 3-dekabrdagi 348-4-63-Q/22 sonli “Tumanda 2024-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror tuman “Mirishkor mashali” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Eshmurodov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.b **A.A.Sariqov**

Mirishkor tuman hokimining
2024-yil 6-yanvardagi
11-4-63-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Mirishkor tumani xo‘jalik, korxona va tashkilotlardagi avtotransport vositalarini 2024-yilgi texnik ko‘rigidan o‘tkazish bo‘yicha komissiya

T A R K I B I A ’ Z O L A R I:

№	F I Sh	Lavozimi
1	Y.Hamroyev	TIIB YXXB boshlig‘i **Komissiya raisi,**
2	U.Tursunov	Tuman “Vatanparvar” MKT rahbari
3	S.Mirzaahmedov	Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
4	Y.Jalolov	Tuman YXPTFK boshligi
5	T.Urakov	Ekalogiya atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi Mirishkor tuman bo‘limi
6	J.Jo‘rayev	Qashqadaryo viloyat Transport boshqarmasi xodimi
7	A.Asatov	Jamoatchilik vakili

Mirishkor tuman hokimining
2024-yil 6-yanvardagi
11-4-63-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Mirishkor tumanida mavjud bo‘lgan tashkilot, korxona va avtoxo‘jaliklarga tegishli transport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish

J A D V A L I

№	Avtoxo‘jalik va tashkilotlar nomi	Joylashgan manzili	Ko‘rikdan o‘tadigan vaqti	Vaqti	Ko‘rikdan o‘tadigan	Transport vositasi soni
1	Hokimlik	Yangi Mirishkor shaharchasi	10.04.2024-y	9-00	Hokimlik garajida	11
2	Tibbiyot birlashmasi	Yangi Mirishkor shaharchasi	17.04.2024-y	9-00	Tibbiyot birlashmasi garajida	7
3	DSEOM	Yangi Mirishkor	17.04.2024-y	9-00	"Mirishkor Avtokorxonasi" MCHJ	3
4	Tuman elektr tarmoqlari	Yangi Mirishkor shaharchasi	19.04.2024-y	9-00	Tuman elektr tarmoqlari garajida	2
5	MKT Vatanparvar tashkiloti	Yangi Mirishkor shaharchasi	19.04.2024-y	9-00	MKT Vatanparvar tashkiloti garajida	12
6	Mirishkor tuman YXPTFD korxonasi	Yangi Mirishkor shaharchasi	20.04.2024-y	9-00	Mirishkor tuman YXPTFDK garajida	8
7	Olloberdi-madadi MMTP	Jeynov qishlog‘i	31.04.2024-y	9-00	Olloberdi-madadi MMTP garajida	3
8	Mirishkor avtokorxonasi MCHJ	Yangi Mirishkor shaharchasi	26.04.2024-y	9-00	"Mirishkor Avtokorxonasi" MCHJ	13
9	Turon-Mirishkor MMTP	Yangi Mirishkor shaharchasi	07.05.2024-y	9-00	Turon-Mirishkor MMTP garajida	3
10	Mirishkor Ixtisoslashtirilgan KTK	Yangi Mirishkor shaharchasi	07.05.2024-y	9-00	Turon-Mirishkor MMTP garajida	5
11	Mirishkor tuman ITB	Mirishkor qishlog‘i	10.05.2024-y	9-00	Mirishkor ITB garajida	27
12	Mirishkor tuman "Saxovat" ICHK	Yangi Mirishkor shaharchasi	10.05.2024-y	9-00	"Mirishkor Avtokorxonasi" MCHJ	6
13	"Kishxujalikkimyo" OXJ	Jeynov qishlog‘i	11.05.2024-y	9-00	Olloberdi-madadi MMTP garajida	2

14	"Mirishkor mash'ali" gazetasi	Yangi Mirishkor shaharchasi	12.05.2024-y	9-00	"Mirishkor Avtokorxonasi" MCHJ	2
15	Yorqinbek Bunyodkor Ixtisoslashtirilgan KTK	Jeynov qishlog‘i	13.05.2024-y	9-00	Olloberdi-madadi MMTP garajida	5
16	Bunyodkor ishlab chikarish MCHJ	Jeynov qishlog‘i	14.05.2024-y	9-00	Olloberdi-madadi MMTP garajida	2
17	Obodonlashtirish boshqarmasi	Yangi Mirishkor shaharchasi	15.05.2024-y	9-00	Turon-Mirishkor MMTP garajida	10
18	"Toza hudud" DUK	Yangi Mirishkor shaharchasi	16.05.2024-y	9-00	Turon-Mirishkor MMTP garajida	8
19	Mirishkor tuman Moliya bo‘limi	Yangi Mirishkor shaharchasi	17.05.2024-y	9-00	Turon-Mirishkor MMTP garajida	2
20	Mirishkor tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo‘limi	Yangi Mirishkor shaharchasi	18.05.2024-y	9-00	Turon-Mirishkor MMTP garajida	3
21	Mirishkor tuman Vetiraniriya labaratoriyasi	Yangi Mirishkor shaharchasi	20.05.2024-y	9-00	Turon-Mirishkor MMTP garajida	3
22	Jeynov avto nur NTM	Jeynov shaharchasi	21.05.2024-y	9-00	Axmadjon-Ixtiyorovich MCHJ garajida	3
23	Qishloq va Suv xo‘jaligi boshqarmasi	Yangi Mirishkor shaharchasi	22.05.2024-y	9-00	Turon-Mirishkor MMTP garajida	2
24	Kamalak fermer xo‘jaligi	Obod qishlog‘i	23.05.2024-y	9-00	Turon-Mirishkor MMTP garajida	4
25	Fayzulloxon Lutfiyev fermer xo‘jaligi	Obod qishlog‘i	24.05.2024-y	9-00	Turon-Mirishkor MMTP garajida	3
26	Beyker-Xyuz qo‘shma korxonasi	Yangi Mirishkor shaharchasi	25.05.2024-y	9-00	Turon-Mirishkor MMTP garajida	2
27	Mirishkor Maxsus avto xizmat MCHJ	Yangi Mirishkor shaharchasi	26.05.2024-y	9-00	Turon-Mirishkor MMTP garajida	4
28	Mirishkor Aloqa savdo MCHJ	Yangi Mirishkor shaharchasi	27.05.2024-y	9-00	Turon-Mirishkor MMTP garajida	3
29	Mirishkor tuman Xalq banki filiali	Yangi Mirishkor shaharchasi	28.05.2024-y	9-00	Turon-Mirishkor MMTP garajida	2
30	Mirishkor tuman Agro bank filiali	Yangi Mirishkor shaharchasi	29.05.2024-y	9-00	Turon-Mirishkor MMTP garajida	1

31	Turon Agrotexservis MCHJ	Yangi Mirishkor shaharchasi	01.06.2024-y	9-00	Turon-Mirishkor MMTP garajida	1
32	Yangiboy fermer xo‘jaligi	Chandir qishlog‘i	01.06.2024-y	9-00	O‘z joyida	6
33	Axmadjon Ixtiyorovich MCHJ	Jeynov shaharchasi	02.06.2024-y	9-00	Axmadjon-Ixtiyorovich MCHJ garajida	2
34	Avvona me’mor xususiy korxonasi	Jeynov shaharchasi	03.06.2024-y	9-00	Olloberdi-madadi MMTP garajida	3
35	Abdug‘afforov Zafarbek Ulug‘bekovich XK	Jeynov shaharchasi	04.06.2024-y	9-00	Olloberdi-madadi MMTP garajida	6
36	Abdumalik Xikmatillayevich xususiy korxonasi	Jeynov shaharchasi	05.06.2024-y	9-00	Olloberdi-madadi MMTP garajida	4
37	Alibekov Amirxon fermer xujaligi	Elobod qishlog‘i	06.06.2024-y	9-00	O‘z joyida	2
38	Uzqishloqxo‘jalikmash lizing	Mirishkor qishlog‘i	07.06.2024-y	9-00	"Mirishkor Avtokorxonasi" MCHJ	2
39	Barotov Xoniboy Rajabovich fermer xujaligi	Mirishkor qishlog‘i	08.06.2024-y	9-00	Turon-Mirishkor MMTP garajida	2
40	Baxtiyorov Asilbek xususiy firmasi	Elobod qishlog‘i	09.06.2024-y	9-00	O‘z joyida	2
41	Berdiyev Baxriddin Temirovich fermer xujaligi	Jeynov shaharchasi	10.06.2024-y	9-00	Olloberdi-madadi MMTP garajida	3
42	Biznes Taraqqiyot saxovat MCHJ	Jeynov shaharchasi	11.06.2024-y	9-00	Olloberdi-madadi MMTP garajida	2
43	Yoshlik xususiy savdo do‘koni	Jeynov shaharchasi	12.06.2024-y	9-00	Olloberdi-madadi MMTP garajida	2
44	Jeynov Zamin kuzgusi fermer xo‘jaligi	Jeynov shaharchasi	13.06.2024-y	9-00	Olloberdi-madadi MMTP garajida	2
45	Islohatchi qurilish IKTK	Jeynov shaharchasi	14.06.2024-y	9-00	Olloberdi-madadi MMTP garajida	3
46	Jeynov kuzgusi xususiy korxonasi	Jeynov shaharchasi	15.06.2024-y	9-00	Olloberdi-madadi MMTP garajida	2
47	Zamin Agrotexservis	Jeynov shaharchasi	16.06.2024-y	9-00	Olloberdi-madadi MMTP garajida	2
48	Zarmas Non-Mak xususiy korxonasi	Guliston qishlog‘i	17.06.2024	9-00	O‘z joyida	2
49	Mirishkor savdo MCHJ	Jeynov shaharchasi	18.06.2024-y	9-00	Olloberdi-madadi MMTP garajida	2
50	Namozov Akbar Azamatovich fermer xo‘jaligi	Mirishkor qishlog‘i	19.06.2024-y	9-00	Turon-Mirishkor MMTP garajida	2
51	Shaxboz Baxriddinovich MCHJ	Bo‘ston qishlog‘i	20.06.2024-y	9-00	O‘z joyida	6

52	Toshev Ro‘ziboy Sayfullayevich fermer xo‘jaligi	Jeynov shaharchasi	21.06.2024-y	9-00	Olloberdi-madadi MMTP garajida	3
53	Sirojiddin Sadriddinovich MCHJ	Bo‘ston qishlog‘i	22.06.2024-y	9-00	O‘z joyida	2
54	Sharif bobo fermer xo‘jaligi	Qurama qishlog‘i	23.06.2024-y	9-00	O‘z joyida	3
55	Xasanov Baxtiyor fermer xo‘jaligi	Guliston qishlog‘i	24.06.2024-y	9-00	O‘z joyida	3
56	Farid avto tex servis MCHJ	Bo‘ston qishlog‘i	25.06.2024-y	9-00	O‘z joyida	3
57	Shaxriyor Lazizovich xususiy korxonasi	Yangi Mirishkor shaharchasi	26.06.2024-y	9-00	"Mirishkor Avtokorxonasi" MCHJ	3
58	Baxoriston Non-Mak MCHJ	Pomuq qishlog‘i	27.06.2024-y	9-00	O‘z joyida	2
59	Boshqa xususiy korxona va firmalar		01.03.2024 yildan 30.06.2024 yilgacha	9-00	Har qaysisini o‘z massivlari garajida	49
60	Tuman fermer xo‘jaliklari		01.03.2024 yildan 30.06.2024 yilgacha	9-00	Har qaysisini o‘z massivlari garajida	67